

ARCHA UNSIMON QURTILARI HAMDA ULARGA QARSHI KURASHISH CHORALARI.

Mirzayev Baxromjon

Farg'ona viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi hodimlari.

Abdujabborov Farruxbek

Farg'ona viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi hodimlari.

Qo'ldoshev Muhammad Yaxyo

Farg'ona viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi hodimlari.

Qodirov Paxlovonjon

Farg'ona viloyati O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi hodimlari.

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Archa unsimon qurtilari hamda ularga qarshi kurashish choralari haqida ma'lumotlar berilgan.*

***Kalit so'zlar:** Archa unsimon qurti, zararkunanda, tuxum, lichinka, archa.*

«Archa unsimon» qurti zararkunandaning lichinka va urg'ochilari archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadi. Uning lichinka va urg'ochilari barcha yer ustki qismlari bilan oziqlanadi. Ayniqsa, barglar kuchli darajada zararlanadi.«Archa unsimon» qurtning kattaligi 2-3 mm bo'lib rangi sarg'ish, qizg'ish, kulrang tusda bo'ladi. Yetuk sames (erkak) zotlari mart oyi oxirida, samka (urg'ochi zot)lari aprel boshlarida chiqishi kuzatilgan. Ularning tuxum qo'yishi may oyi davomida va iyun boshlarigacha davom etib o'rtacha 280 tagacha tuxum qo'yadi. Bu zararkunandaga qarshi kurash ishlarida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur.«Archa unsimon» qurtini ichki karantin ahamiyatga molik zararkunanda sifatida ro'yxatga olish, zararkunanda tarqalgan joylar va hududlar aniqlanishi hamda bu joylardan archa ko'chatlarini boshqa joylarga yuborilishini qa'tiyan ta'qiqlanishi shart. Zararkunandaga qarshi kurashda uning tuxumdan

lichinka ochib chiqish davrida kimyoviy preparatlarni qo'llash yuqori samara berishini inobatga olib kimyoviy ishlovlarni shu davrlarda boshlash kerak. Zararkunanda bilan jiddiy shikastlanib qurish holatiga kelib qolgan daraxtlarni kesib unsimon qurt keng tarqalmasligi uchun ularni o'sha joyning o'zida yoqib yo'qotish shart. Agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq bajarish (fosforli, azotli, mikroelementlar Master, Kropsheld, Vegrutlar bilan oziqlantirish). Kimyoviy preparatlardan Bi-58 (yangi) 40% em.k, Bagira 20% em.k va Atilla 5% em.k foydalanish tavsiya qilinadi. Ushbu preparatlarni zararkunandalarning paydo bo'lishi bilan birinchi ishlov o'tkaziladi va zararkunanda butkul yo'qolguncha har o'n besh kunda kimyoviy ishlovlar olib borilishi kerak. Fitosanitariya nazorati kuchaytirilib, qishloq xo'jaligi ekinlarini archaning novdalari va barglarini so'rib zarar yetkazadigan «Archa unsimon» qurtidan samarali himoya qilish va manzarali daraxtlarni saqlab qolish choralari ko'rilmoqda. Ish jarayonida sohaning malakali mutaxassislari tomonidan «Archa unsimon» qurtlariga qarshi kurashish uchun barcha choralar ko'rib, tafsiyalar berib borilmoqda.

Zararkunanda bilan zararlangan archalarni ajratish qiyin emas. Chunki archaning pastki shoxlari qurishi kuzatilib, bu shoxlar yuqoriga qarab ko'payib boradi. Qishlovga ketishdan oldin o'zidan chiqargan oqish parsimon moddalar orasiga kirib oladi. Urg'ochilarining pushtdorligi 90-220 donagacha tashkil etadi. Zararkunanda ekologik muhitga asosan bir yilda 2-3 marta avlod beradi. Archa unsimon qurti ignabargli daraxtlarning ayrimlarida yashay oladi. Ammo uning tarqalishi juda qulay. Archa unsimon qurti yashash davomiyligi uzoq hisoblanib, 3-6 oyni tashkil etadi. Zararkunanda turlariga qarab tabiatda erkak urg'ochi nisbati 1:1 ni tashkil etadi. Ushbu zararkunanda tarqalgan maydonlarda birinchi majjevelnikka zarar yetkazadi keyinchalik esa boshqa turdagi daraxtlarni ham zararlaydi. Bunda ko'chatxonalar, dam olish bog'lari kabi joylarga tarqaladi. Turkiya va Gruziyada ushbu zararkunanda ignabargli daraxtlarni 80 % gacha zararlanganligi aniqlangan. Bunday hodisalar boshqa mamlakatlarda ham

kuzatilgan bo'lib, Eronda, Isroilda va Kiprda o'rganilgan. Tabiatda uning kushandalari juda kam uchrab, zararkunanda asosan aholi yashash joylaridagi manzarali daraxtlarda ko'proq zarar keltiradi. Chunki ushbu sharoit ular uchun qulay bo'lib, archa turlari ularni o'ziga jalb etadi.

Xulosa:

Zararkunanda qishlash davomida ayrim vaqtlarda ham tuxumlari ham lichinkalari qishlab qoladi. Qishlash davomidagi lichinkalarining barchasi ikkinchi yosh holida bo'ladi. Ikkinchi yosh lichinkalarining yashash davomiyligi 14-16 kungacha cho'ziladi. Uchinchi yoshda esa 18-19 kun rivojlanadi. Urg'ochi qurtlari oziqlanib bo'lgach tuxumlarini qopchalar ichiga joylab qo'yadi, bitta qopchada 210-330 donagacha tuxum bo'ladi. Tuxumlarining embrional rivojlanishi 10-12 kunni tashkil etadi. Ular avlodlarining rivojlanishi deyarli bir xil. Archa unsimon qurti bilan zararlangan archa novdalarida chumolilar, pashshalar to'planishi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmedov, M., & Mansurxo'jaeva, M. (1998). Iqlimlashtirilgan daraxt va butalar shiralari aniqlagichi [Determinant of the sap of acclimatized trees and shrubs].[1]
2. Akbarovich, M. A., Ilkhomjonovich, Z. I., & Sharibjonovich, S. D. (2021). Ecological-Faunistic Analysis of Longhorn Beetles (Coleoptera: Cerambycidae) of Fergana Valley. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6819-6830.[2]
3. Kapizova, D. ., & Zokirov, I. I. . (2022). New Data on the Bioecology of Some of the Castles Encountered in the Conditions of Eastern Fergana. International Journal of Development and Public Policy, 2(6), 84-88. Retrieved from https://openaccess_journals.eu/index.php/ijdpp/article/view/1446[3]
4. Masodiqova, M. A. Q., & Zokirova, G. M. (2021). FARG 'ONA VODIYSI SHAROITIDA APHIS PUNICAE PASSERINI, 1863 SHIRASINING BIOLOGIYASI VA HAYOTIY SIKLI. Academic research in educational sciences, 2(6), 381-387.[4]
5. Yunusov, M. M., & Zokirov, I. I. (2021). FARG 'ONA VODIYSINING AYRIM DENDROFIL SHIRALARI (HOMOPTERA, APHIDOIDEA) BIOEKOLOGIYASI. Academic research in educational sciences, 2(6), 1289-1299.[5]